

# TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

*JPMM maktabgacha ta'lim metodisti:  
Turaxujayeva Madina Norpulatovna.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning dolzarbligi, ta'lim bosqichlarining uzluksizligini ta'minlash zarurati hamda yosh avlodni har tomonlama rivojlantirishda maktabgacha ta'limning tutgan o'rni yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, ta'lim islohotlari, uzluksiz ta'lim, inson kapitali,

## **MODERN APPROACHES TO ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS**

*Madina Turaxujayeva Norpulatovna  
Jizzakh Region Pedagogical Skill Center  
Preschool Education Methodist*

**Annotation** This article examines the relevance of reforms carried out in the preschool education system, the necessity of ensuring continuity between educational stages, and the role of preschool education in the holistic development of the younger generation.

**Keywords:** preschool education, educational reforms, continuing education, human capital, pedagogy, education strategy.

Dunyo va respublikamiz miqyosida yoshlarning qobiliyatlari, iste'dodlari, ichki imkoniyatlarini, o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish tendentsiyalari kuzatilmoqda. Yosh avlodning shaxs va faol fuqarolik pozitsiyasiga

ega bo'lgan subyekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasini yuksaltirish maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlanadi. Ushbu jarayonning samarali tashkil etilishi va boshqarilishi ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlash sharti bo'lib xizmat qiladi, chunki yosh va murg'ak qalblar bilan olib boriladigan pedagogik jarayon ularning kelajakda kim bo'lib etishishlari, qanday fuqarolik pozitsiyani egallashlari bilan bog'liq holda qaraladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-mayda PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori mamkatimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash bilan birga ta'limning boshlang'ich bo'g'ini - maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish talab etiladi.

Har qanday davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan birini ta'lim sohasida amalga oshirishdigan islohotlar tashkil etadi. Chunki bu islohot yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga qaratilgan bo'lib, davlatning istiqboldagi taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham ta'lim tizimidagi islohotlar dolzarbligini hech qachon yo'qotmaydi.

Bola tug'ilgan to 30 yoshgacha, hayotda o'z pozitsiyasiga ega bo'lguncha unga ko'mak beradigan yagona va uzluksiz tizimga ega bo'lgan ta'lim va tarbiya sohasidagi islohotlar har qachongidanda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sababi, globallashtiruv yoshlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek ilmiy-texnikaviy jihatdan tez rivojlanayotgan dunyoda yuqori salohiyatli kadrlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan davlat asosiy e'tiborni ta'lim tizimi sohasidagi islohotlarga qaratmoqda, ko'proq kapitalni yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga yo'naltirmoqda. Aslida inson kapitali ham noyob boylik singari

baholanadi. AQSHda yalpi kapitalning shakllanishini o'rgangan olim J.Kendrik ushbu mamlakatni boy qilgan asosiy omil inson kapitali ekanini aniqlagan.

Maktabgacha pedagogika umumiy pedagogikaning alohida qismi bo'lib, uning umumiy qonuniyatlari, tamoyillari, metodologik asosi, tashkiliy shakl, metod va vositalariga tayanadi. Maktabgacha pedagogikaning nazariyasi va amaliyoti maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga umumiy tarbiya berishning maqsadi, bolaning yosh imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli, maktabgacha ta'limni hayot, amaliyot va zamonaviylik bilan bog'liqlikda olib borishning zarurligi, bola shaxsining shakllanishida muhitning hal qiluvchi ahamiyatga egaligiga asoslaniladi.

Didaktika ta'limning nazariy jihatlarini, ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatlari, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari kabi muammolarni tadbqiq qiladi. Tarbiya nazariyasi esa pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil qilish muammolarini o'rganadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy tarbiya aqliy, axloqiy, jismoniy, mehnat, estetik, iqtisodiy, huquqiy va ekologik tarbiya kabi yo'nalishlarda tashkil qilinadi.

Shu nuqtai nazardan Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim va tarbiya jarayoni maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama uyg'un rivojlantirish, ularni maktab ta'limiga tayyorlash vazifasini muvafaqqiyatli hal etadi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalarni bajarishga alohida e'tibor beriladi:

- Har tomonlama uyg'un rivojlangan bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mohiyatini o'rganish;
- bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish qonuniyatlarini aniqlash;
- ijtimoiy taraqqiyot darajasidan kelib chiqqan holda, rivojlangan xorijiy mamlakatlar maktabgacha ta'lim tizimi tajribasini o'rganish asosida ta'lim tizimini takomillashtirish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda ularda faoliyat olib borayotgan tarbiyachilar faoliyati mazmunini asoslash;
- ilg'or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va amaliyotga joriy etish;
- tarbiyachilarni maktabgacha pedagogikaga oid bilimlar hamda ta'lim-tarbiya usullari bilan qurollantirish;
- ta'lim-tarbiya birligi hamda ijtimoiy tarbiya yo'nalishlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlashning pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish;
- o'qitish hamda tarbiyalash jarayonining samarali texnologiyalarini yaratish;
- oila tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etish yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish.

Maktabgacha pedagogikaning asosiy kategoriyalari fanning asosiy mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'quv faoliyatining sifati o'quv jarayonini rejalashtirish, uni amalga oshirish, o'quv reja, dasturlarining mazmun mohiyati bilan emas, balki bolalarning olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalari, mustaqil ravishda olgan bilimlari bilan bog'liq ta'lim natijasi sifati bilan belgilanmoqda. Shunday qilib, ta'lim-tarbiya sifatini oshirish jarayonida yangi mazmun va mohiyatga ega bo'lgan insonparvarlik tamoyillariga asoslangan, yaratuvchanlik, ijodkorlikka intilish hissi bilan yo'g'rilgan ta'lim komil inson shaxsini etuklikka yo'naltiradi. Binobarin, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib borilayotgan islohotlar ta'lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo'nalishga burdi. Demak, ta'lim-tarbiyaning maqsadi butunlay yangilandi, unga mos holda mazmunning ham, pedagogik jarayonning ham yangilanishi tabiiydir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli shaxs manfaatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 1-may. <https://lex.uz>.

2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. 2020-yil 23-sentyabr. <https://lex.uz>.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni. 2019-yil 16-dekabr. <https://lex.uz>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. 2022-yil 28-yanvar. <https://lex.uz>.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-mayda PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” Qarori. <https://lex.uz>.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–79-son Farmoni. 2023-yil 26-may. <https://lex.uz>.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 231-son Qarori 2024-yil 21-iyun. <https://lex.uz>.